

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING IJODIY
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XOR-DIRIJJYORLIK
FANINING METODIK AHAMIYATI**

Kuchkarbayeva Feruzaxon Xayrullo qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

kuchkarbayevaferuza@gmail.com

Tel: +998911602405

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar bilan ishlay oladigan, vokal xor usullarini biladigan, bolalarni psixologik-fiziologik imkoniyatlarini yaxshi biladigan pedagogiklarni tayyorlashdagi tavsiya va ko'nikmalar keltirilgan. Zamon talablarga har tomonlama javob beradigan yuqori malakali kadrlar va ularning kasbiy kompetentliliqi asosida olib borayotgan pedagogik faoliyatida barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatimizning eng oliy maqsadidir.

Kalit so'zlar: xor-drijor, xor rahabari, bolalar xor san'ati, musiqiy shtrixlar, opera, vokal.

Аннотация: В данной статье представлены рекомендации и навыки по подготовке педагогов, владеющих вокально-хоровыми методиками, способных работать с детьми, хорошо разбирающихся в психологических и физиологических возможностях детей. Высшей целью нашего общества является воспитание гармоничного поколения в педагогической деятельности, осуществляющей на основе высококвалифицированных кадров и их профессиональной компетентности, которые всесторонне отвечают требованиям времени.

Ключевые слова: хор-дирижер, руководитель хора, детское хоровое искусство, музыкальные штрихи, опера, вокал.

Abstract: This article presents recommendations and skills in the training of pedagogists who know vocal choral methods that can work with children, who are well versed in the psychological and physiological capabilities of children. The highest goal of our society is to educate and bring up a harmonious generation in the pedagogical

activities carried out on the basis of highly qualified personnel and their professional competence, which comprehensively meet the requirements of the Times.

Keywords: choir-drijor, choir rahabari, children's Choral Art, Musical bars, opera, vocals.

Umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida Respublikamizda o'sib kelayotgan yoshlarning madaniy, ma'naviy va estetik komolotiga erishishi asosiy o'rinn tutadi. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari aynan ularni badiiy tafakkuri, estetik didi, madaniy saviyasini birinchi navbatda shakllantirishni talab etadi bu vazifani amalgalashmasdan turib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi taraqqiyotni to'la-to'kis ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamon talablarga har tomonlama javob beradigan yuqori malakali kadrlar va ularning kasbiy kompetentliligi asosida olib borayotgan pedagogik faoliyatida barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jamiyatimizning eng oliy maqsadidir.

Bugungi kunda tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqa o'qituvchilarining xor-dirijyorligi faoliyatiga tayyorgarligi tizimi yetarli darajada barqarorlashmagan. Bunga sabab oliy ta'lif musiqa ta'limi yo'nalishlarining o'quv rejasida dirijyorlik soatlari uchun yetarli soat ajratilmaganligi va kurslar bo'yicha dirijyorlik bilim va malakalari yuzasidan ma'lumotlar o'tilishini chegaralanib qolganligi, musiqa pedagogikasi yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilar orasida xor-dirijyor mutaxassislarining yetarli emasligidir. Oliy pedagogika ta'lim muassasalaridagi xor-dirijyorligi sinfidagi mashg'ulotlarning maqsadi faqatgina xor rahbarini tayyorlash bo'lib qolmay balki, bolalar bilan ishlay oladigan vokal xor usullarini biladigan, bolalarni psixologik-fiziologik imkoniyatlarini yaxshi biladigan pedagogiklarni tayyorlashdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni ushbu ko'nikma va malakalarni egallashlarida ularni dars mashg'ulotlardan tashqari o'z ustlarida mustaqil va muntazam ishlashlari ham katta ahamiyatga ega. Ilk mashg'ulotlar jarayonida dirijyorlik texnikasini dirijyorlik apparati bilan uyg'unlashtirishga tayyorgarlik amalga oshiriladi. Bu vaqtda ohangni taktlashtirish (taktirovka) ni o'rganishga kirishib, dirijyorlik harakati elementlari

o‘rganiladi. Asosiy hissalar (siltash, intilish, nuqta, qaytarish) kabilar haqida nazariy va amaliy bilimlar egallanadi. Dirijyorlik harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari (tezlik, tebranish kengligi) shuningdek dirijyorlik amplitudasi, davomiylilik dinamikasi (ovoz kuchi), musiqa xarakteriga ko‘ra harakatlarni salmoqlash, ijroni yo‘naltirish, kabilar ustida ishlanadi.¹ Dirijyorlikka oid ma’lumotlarning ko‘pligini ta’minlovchi harakatlarga mujassam bo‘lgan ovozlarning qo‘sishimcha komponentlari – metr, tezlik, xarakter, ritm, jo‘sinqinlik, ovoz boshlanishi, ovoz tugashi, dirijyorlik ijrosining boshlang‘ich uch asosiy elementi «diqqat, nafas, ijroni boshlash» va ijroni tugashini ko‘rsatish uni amaliy tarzda ko‘rsatish, tushuntirish, harakat orqali metr o‘lchovlarini ifodalashdagi muhim xususiyatlar – shtrixlar “ligato”, “non ligato”, “stakkato” larni qo‘l harakatlarida ko‘rsatishi o‘zlashtiriladi. Shundan so‘ng 2/4 o‘lchovidagi ritmik ko‘rinishni sxemasi va unga monand bo‘lgan qo‘l harakatlarini ko‘rgazmali, texnik vositalar va bevosita o‘qituvchi yordamida o‘rganiladi. Shundan so‘ng 3/4, 4/4 o‘lchamlarini o‘zlashtirish, kichik mashq musiqiy parchalarni kuylab – dirijyorlik qilish orqali o‘zlashtiriladi. Musiqiy asarning o‘rtacha jo‘sinqinligi, mo‘tadil tezlik, nafas olish, uni sarflashni iboralar bilan ko‘rsatish qo‘l harakatining boshlang‘ich chegarasi, tovush (kuchli) hissalarini ko‘rsatish, qisqa vaqtini harakatchan nozik ohanglarning ishtirokini ifoda etish, maktab repertuarini va ularni xor jamoaga o‘rgatish, ijroga dirijyorlik qilish ishlari amalga oshiriladi.

Hozirda musiqa estetikasi, milliy madaniyat, tarix, madaniy merosimizning chuqr izlanishlariga qiziqish otrib bormoqda. Opera xor musiqasi, jo‘rsiz xor asarlari o‘zining yangi davriga kira boshladi. Zamonaviy operalar – “Alisher Navoiy” (M.Burhonov), “Zebbiniso” (Sayfi Jalil), “Umar Xayyom” va “Al-Farg‘oniy” (Mustafo Bafoyev)da xor partiturası matosida ham, cholg‘ulashdirishda ham kamerlikka intilish sezildi. Bu ham balki davr taqozosi bilan belgilanayotgan jarayondir. Jo‘rsiz xor asarlarida doira, qo‘schnay, qayroq kabi cholg‘ulardan foydalanish yangi uslubiy sifatlarga, yangi musiqiy ifoda vositalariga o‘tishni

¹ Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: 2005.25-b.

anglatadi. Respublikamizda bolalar xor san'ati ham keng rivojlanib, ijrochilik mahorati yuksaklarga ko'tarildi. Bunga sabab – muntazam o'tkazilib kelinayotgan "Qo'shiq bayramlari", musiqa festivallari va tanlovlardir. Shu bahona barcha o'rta maktablarda, o'quvchi-yoshlar ijodiyoti markazlarida xor jamoalari, xor studiyalari tashkil topdi. Ular uchun O'zbekiston kompozitorlari yuzlab yangroq qo'shiqlar yaratib, konsert-pedagogik repertuarlarini boyitdilar.

Bolalar xor san'atining rivojlanishida O'zbekiston xalq artisti, "Sog'lom avlod" ordeni sohibi, mashhur "Bulbulcha" bolalar xor jamoasining rahbari Shermat Yormatovning xizmatlari beqiyosdir. Ijodkor sifatida uning qalamiga mansub – "Maysa", "Yalpiz", "Dorboz", "Qari chumchuq chaqimchi" kabi o'nlab jo'rsiz asarlarini sanab o'tish mumkin. Bolalar xor san'atining rivojlanishida, shuningdek, R.Gliyer va V.Uspenskiy nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik liseylari, Badiiy Akademiya huzuridagi Tasviriy va amaliy san'at liseyi, H.H.Niyoziy nomidagi Respublika musiqa kolleji, Yu.Rajabiy nomidagi Pedagogika kolleji va boshqa keljakka intilgan o'rta va musiqa maktablarining xor jamoalarini Respublika miqyosida amalga oshirayotgan ijodiy faoliyatini alohida mammuniyat bilan ta'kidlash lozim.

Xor deb maxsus tashkil qilingan, vokal – xor texnikasiga, badiiy – ifoda vositalariga ega bo'lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoani atash mumkin.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarur. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'zining ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjixat jo'rnavozlik qilishni o'rganadi.²

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'z professional xor san'atiga ega bo'lmasada, lekin qadim zamonlardan beri jamoa (xor) bo'lib qo'shiq aytish an'analariga ega bo'lgan. Ma'lumki o'zbek xalqi ham, boshqa xalqlar kabi asrlar davomida o'zining mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan musiqiy

² Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: 2005.25-b.

durdonalarini yaratgan, e'zozlagan va uni og'zaki usulda avloddan – avlodga qoldirgan.

O'zbekistonda milliy – professional xor san'ati yuzaga kelishida 1961-yil Respublikamizda televideniye va radio qoshida tashkil topgan. B.Umidjonov rahbarligidagi xor kollektivi muhim hissa qo'shgan. Bu xor orqali xor san'atini aktiv targ'ib qilib kelgan. B.Umidjonov shu xorga juda ko'p asarlarni yozgan va qayta ishlagan.

O'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuncha beriladi. Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi. Zotan, bir darsda qaysi musiqa faoliyatini olmaylik, u avval musiqa yangrashini idrok etish va uning obrazi hamda xarakterlarini fahmlagandan so'ng ijobiy tarzda amalga oshiriladi. Demak, musiqa idroki dars jarayonining asosiy omili ekan. Shu boisdan musiqani eshitish, zavqlanish, qo'shiq kuylash, musiqa savodxonligiga doir xususiyatlarni anglab olish, raqs tushish musiqa ostida turli ritmik harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblarida chalib musiqaga ritmik jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqalarni idrok etib borish kabi faoliyatlarini bajarish mumkin. Musiqa idroki darsda ikki tarzda- musiqa asarlarini maxsus eshitish (musiqa tinglash) va musiqani eshitib, anglab uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarni amaliy bajarish.

Musiqa va san'at mакtablarida o'quvchilarga xor darslarini ilmiylik asosida, Davlat Ta'lim Standartlariga tayangan xolda yoritish. Musiqa madaniyati darslari o'quv tarbiyaviy ishning asosiy shakli, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarilishini ko'zda tutadi. Musiqa darslari Davlat Ta'lim Standartlar asosida musiqiy nazariy bilimlarni, musiqiy dunyoqarashlarini, musiqiy qobiliyatini, axloqiy fazilatlarini shakllanishini aniq belgilab beradi va shunga mos holda musiqiy ta'lim tarbiya maqsadini umumiylashtirish. ³

³ Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: 2005.25-b.

O‘zbek musiqasini asosi bir ovozli bo‘lganligi sababli ko‘p asrlar davomida ko‘p ovozli xor ijrochiligi amalda qo‘llanilmagan. Xor san’ati respublikamizga 1920 – yillardan keyin kirib kelgan. Ko‘p ovozli xor dastlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab qayta ishlagan holda qo‘llanilgan.

M.Ashrafiyning “Bo‘ron” operasi T.Sodiqovning “Layli va Majnun” operasi kabi ko‘p ovozli o‘zbek xor ijrochiligi xor rivojida katta rol o‘ynaydi.

M.Burxonov, S.Boboyev, I.Akbarovlar birinchi xor asarlarini respublikamizda xor ijrochiligini o‘sishiga katta yo‘l ochib bergen va birinchi o‘zbek xor akapellasi 1952 – yili tashkil topgan, raxbari S.Valenkov bo‘lgan. Ko‘p ovozli xor san’atining jadal rivojlanishi 50 – 60 yillarga to‘g‘ri keladi. Har yili qo‘sishq bayramlari festivallar o‘tkazilib, unda ko‘p mungli xor kollektivlari qatnashgan.⁴

Shu asarlar hozirgacha maktab, kollej va oliygoxlarda darslik sifatida ishlatib kelinmoqda. Uning ijodiy boyligi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston, Qirg‘iziston xalqlarining ellikdan ortiq original va qayta ishlangan qo‘sishqlarini o‘z ichiga olgan. 1982 – yili O‘zbekiston Televideniye va Radio xori Respublikada hizmat ko‘rsatgan kollektiv nomiga sazovor bo‘lgan.

Keyingi yillar davomida Respublikamizda bolalar xori keng rivojlanib, o‘z ijrochilik mahoratini oshirib kelmoqda. Har yili Respublikada o‘tkazilib kelinayotgan an’anaviy “San’at bayram”lari ko‘rik konkursi musiqa va umumta’lim maktablarining ko‘pdan-ko‘p kollektivlarini jalb etgan. Yaqindan beri bu konkurslarga “Bolalar bahori” ko‘rik tanlov keng ommani o‘ziga qamrab oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Soipova. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.: 2005
2. Xodjayeva M. Xor partiturasini o‘qish T.:Turon-Iqbol 2018.

⁴ Xodjayeva M. Xor partiturasini o‘qish T.:Turon-Iqbol 2018. 3-4 b.